

JAHON VA O'ZBEK ADABIYOTIDA YETIM BOLA OBRAZI TALQINI

Quliyeva Gulnoza Olimovna

Termiz davlat universiteti

O'zbek filologiyasi fakulteti talabasi

Hamdamov Ulug'bek Hasan o'g'li

Ilmiy rahbar. Termiz davlat universiteti o'qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18206026>

Annotatsiya. Ushbu maqolada insoniyat tarixida uchraydigan, asrlar davomida muhim mavzulardan biri bo'lib kelayotgan yetimlik motivi, yetim bola ruhiyatidagi kechinmalar, ularga nisbatan adolatsizlik va jamiyatda yetim bolalarga bo'lgan munosabatlar hamda ularda ijtimoiy muhitning ta'siri ostida shakllangan xarakter jihatlari jahon va o'zbek adabiyotida yetim bola obrazini yoritib bergan asarlar orqali qiyosiy tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: yetimlik motivi, ma'naviy qashshoqlik, yetimlik fenomeni, ruhiy kechinma, obraz, individual uslub.

Аннотация. В данной статье представлен сравнительный анализ мотива сиротства, являющегося важной темой в истории человечества на протяжении веков, опыта сирот, несправедливости по отношению к ним и отношения к сиротам в обществе, а также черт характера, формируемых у них под влиянием социальной среды, на примере произведений, освещающих образ сирот в мировой и узбекской литературе.

Ключевые слова: мотив сиротства, духовная нищета, феномен сиротства, духовный опыт, образ, индивидуальный стиль.

Abstract. This article presents a comparative analysis of the motif of orphanhood, which has been an important theme in human history for centuries, the experiences of orphans, injustice towards them, and the attitudes towards orphans in society, as well as the character traits formed in them under the influence of the social environment, through works that illuminate the image of orphans in world and Uzbek literature.

Keywords: orphanhood motif, spiritual poverty, orphanhood phenomenon, spiritual experience, image, individual style.

Adabiyot ko'pincha turli davrlarni qamrab olgan, jamiyat orasida mavjud bo'lgan muammolar, ijtimoiy munosabatlar va insonning ruhiyatini sodda til orqali ochib beruvchi vosita hisoblanadi. Har bir yozuvchi o'z asarlarida shu kabi tushunchalarni turli obrazlar orqali tasvirlab beradi. Millat bor ekan, uning ruhiy kechinmalari: baxt, iztirob, qayg'u, shodlik, orzu kabi tuyg'ulari badiiy timsollar va obrazlar asosida yoritiladi. Insonning haqiqiy qiyofasini ruhiy iztiroblar belgilaydi. Iztiroblar kitobxon qalbiga ta'sir o'tkazadi. Tabiiyki, bu ta'sirlar natijasida qalb ezgulashadi. Ezgulikka da'vat badiiy adabiyotning asosini tashkil etadi. Shu tufayli inson ko'ngli adabiyotga hamohangdir. [1, B.138]

Jumladan, adabiyotda ta'sirchan timsollardan biri bu – yetim bola obrazidir.

Yetimlik motivi ilk xalq og'zaki ijodi timsollarida, xususan, ertak va rivoyatlarda qo'llanilib, keyinchalik yozma badiiy adabiyotgacha bo'lgan davrda shakllanib kelgan badiiy timsol sifatida talqin qilinadi. Yetimlik bolalar dunyosida ruhiy iztirob va hissiy azoblar bilan ifodalanadigan jarayondir. Asosan, yetimlikda ulg'aygan bolalar xarakterida yolg'izlik hissi, ota-ona mehrining yetishmasligi sabab yuzaga keladigan salbiy sifatlar, insonlar va jamiyatdan begonalashuv kabi bir qancha psixologik holatlar mavjud bo'ladi.

Jahon adabiyotida aynan yetimlik motivini ko'pgina asarlarda, jumladan, Charlz Dikkins ijodida ham uchratishimiz mumkin.

Yozuvchining "Oliver Tvistning boshidan kechirganlari" romani shu ruhda yozilgan asarlar qatoriga mansubdir. Asarda boshlangan hayotining ilk davridanoq yetimlik fojiasiga duch kelgan qahramon taqdiri bayon qilingan. Mazkur fojiani mohiyatini hali anglab yetmagan go'dak hayotida yetimlik murakkab vaziyatlarni hamda turli xil sinovlarning yuzaga kelishiga sabab bo'lishi yozuvchi tomonidan ifodalangan:

– *Chaqaloq yig'laydigan bo'lsa menga odam yuborib o'tirmanglar, – dedi tabib qo'lgopini kiyar ekan.*

– *Judayam besaranjom, yig'loqi bo'lishi ham mumkin.* [2, B.8]

Yetimlik sharoitida ulg'aygan bolalarning ko'pchiligida hayotining asosiy bosqichi bolalar uylarida o'tadi. Ammo yozuvchi asarida "mehnat uyi" birikmasini qo'llaydi. Nima sababdan aynan ushbu nomlanishga murojaat qiladi? Asarda keltirilgan qahramon bu maskanda mehr, e'tibor va parvarish o'rniga zulm, shafqatsizlik va turli mehnat vazifalariga jalb etilishi va bosim ostida ulg'ayadi. Shu lahzadan boshlab, bola jamiyatdagi havas qilib bo'lmaydigan o'rnini umr bo'yi do'lday yog'ilajak kaltag-u nordon shapaloqlar bilan siylanadigan, hamma jirkanadigan, hech yerda hech kimdan shafqat-muruvvat ko'rmaydigan, qavmga boqindi bola, mehnat uyidagi yetimcha yetti kulcha, itoatkor, och-nahor tirikchiligini o'tkazuvchi yugurdak o'rnini egalladi.[2, B.9]

Yetimlikdagi ayanchli holatlardan biri ochlik masalasi ham achinarli tarzda tasvirlangan.

Berilgan taomning yetarli emasligi sabab qo'shimcha ovqat so'rash bolalardan katta jasorat va jur'atni talab qilgan, biroq ular kamsitish va shafqatsiz munosabatlarga bardosh berishdan ko'ra ochlikni afzal bilganlar. Ushbu davrda yetim bolalar ustidan hukmronlik, zulm, noinsoniy munosabatlar, ularning hayotiga jamiyatning befarqligi ko'pgina personajlar timsolida ochib berilgan. Bolalarning hattoki oddiy ehtiyojlari ham adolatsiz jazolarga sabab bo'lishi voqealar rivojida aks ettirilgan.

– *U tegishli ulushini yeb bo'lganidan so'ng qo'shimcha go'ja so'ragan, sizni to'g'ri tushunibmanmi, shundaymi?*

– *Xuddi shundoq bo'пти, ser, – javob berdi Bambl.*

– *Bu bolakayning umri dorda tugaydi, – dedi oq nimchali jentlmen.*

– *Bilaman, bu bolakayning umri sirtmoqda tugaydi.* [2, B.22]

Bunday qiyinchiliklarga dosh bera olmagan Oliver Tvist ham boshqa bolalar kabi mehnat uyini tark etadi. Yetarlicha mehr va g'amxo'rlik ko'rmagan bu bolalar atrofdagi qabih insonlar va salbiy ta'sirlar natijasida turli noto'g'ri yo'llarga kirib qoladi, bu esa bolalar ruhiyatidagi zaiflik, himoyasizlik ifodasidir. Shu kabi qahramonimiz Oliver Tvist ham "ma'naviy qashshoqlik" tufayli cho'ntakkesarlar to'dasiga qo'shilib qoladi va o'g'rilar hayotida yashashga majbur bo'ladi. Shunga o'xshash holatlarni o'zbek adabiyotida ham uchratishimiz mumkin.

Xususan, Tohir Malikning "Alvido, bolalik" asarida keltirilgan qahramonlar taqdirida yetimlik omili, shuningdek, oiladagi salbiy muhit ta'siri oqibatida ularning jinoiy yo'lga kirib qolish holatlari tasvirlangan. Qissadagi psixologizm jinoyat olamiga kirib qolgan o'smirlarga xos ziddiyatli xarakterlar, obrazlar, voqealar talqinida ochib berilgan. [3, B.159]

Qamariddin tug'ruqxonada ko'z ochib, bolalar uyida tetapoya bo'ldi, bolalar uyida esini tanidi. Ota-ona mehri, kindik qoni to'kilgan uy degan tushunchalar begona edi. [4, B.43]

Qamariddin obrazi – yoshlikdan yetimlikda ulg'aygan bola ruhiyatida dastlab boshqa oilalar tomonidan asrab olinishi kabi umidning paydo bo'lishi, keyinchalik esa ushbu

umidlarning barbod bo'lishi natijasida yolg'izlik hissi, o'zini atrofdagilar uchun ortiqcha shaxs sifatida anglash holatlari kuzatiladi.

Mazkur ruhiy jarayonlar qahramon onggi va qalbida onasiga nisbatan alam va nafrat tuyg'ularining shakllanishiga olib kelib, salbiy yo'llarga kirib qolishiga zamin yaratadi.

Qamariddin o'zi uchun shunday qaror chiqaradi: "Sening himoyaching yo'q, hech kim senga qayishmaydi, nohaqlikka qarshi o'zing kurashishing kerak. O'zingni o'zing himoya qil, kurash, yengib chiq. Kimligingni ko'rsat ularga! Agar yengib chiqolmasang, o'zingni ko'rsatib qo'ya olmasang, o'lib ketganing ming marta yaxshi!..." Qamariddin shu qaror bilan ilk marta jinoyat yo'liga kiradi. [4, B.160-161]

Asarda bosh qahramonlardan biri sifatida talqin etilgan Asror obrazi ham oilasidagi ijtimoiy muhit bilan bevosita bog'liq holda ulg'ayadi. Xususan, otaning farzandi o'gay onaning farzand tarbiyasiga yetarli darajada e'tibor qaratmasdan, uni erta yoshdan moddiy muhitga o'rgatish hamda bolaga nisbatan beparvo munosabatda bo'lishi natijasida Asror Qamariddin boshchiligidagi jinoiy to'daga qo'shib qoladi. Asrorning mazkur yo'lga o'zi xohlamasdan kirib qolgani uning ma'naviy dunyosida yovuzlik yo'qligini ko'rsatadi. Shu sababli u sodir etgan jinoyati uchun vijdonan azob chekadi va ichki ruhiy muammolarni boshdan kechiradi.

O'zbek adabiyotida yetimlik motivini G'afur G'ulomning "Shum bola" asarida ham ko'rishimiz mumkin. Adibning "Shum bola" qissasida o'zbek xalqining o'tmishdagi og'ir hayoti, xususan, o'smirlarning qarovsizligi, ularning bir parcha non deb darbadar kezishlari achinarli tasvirlansa, ba'zi obrazlarning harakatlari kulgi ostiga olinadi. [5, B.99]

Asardagi Qoravoy obrazi otasiz yetimlikda ulg'aygan, hayotning og'ir sinovlariga uchragan, adolatsizliklar qurboni bo'lsa-da, uning xarakterida bolalarga xos beg'uborlik, sho'xlik va quvnoqlik hislatlari ajralib turadi. Qoravoyning onasi hayotning turli tashvish va mashaqqatlariga qarshi yolg'iz holda kurashishga majbur bo'lib, bolalarini boqish va ro'zg'or ehtiyojlarini ta'minlash mas'uliyati to'liq uning zimmasiga yuklanadi. Ushbu ijtimoiy-iqtisodiy og'irliklar oqibatida ona farzandlariga yetarlicha e'tibor va mehr ko'rsata olmaydi. Qoravoy bu kabi e'tiborsizliklar natijasida o'g'rilar, kissavurlar va giyohvand mullalar to'dasi tarkibida bo'ladi va ularning "jirkanch ishlari"ga sherik bo'ladi.

Jamiyat orasida qarovsiz va himoyasiz bolalar ko'pincha o'zlariga bog'liq bo'lmagan salbiy jarayonlar uchun aybdor sifatida aks ettiriladi.

"...meni tutib qo'limni orqaga bog'ladilar. Bozorma-bozor aylantirib, boshimga qamchi bilan urib, "sazoyi kishi odam o'ldirsin", degan so'zni baland ovoz bilan takror qilishga majburlagan edilar". [6, B.51]

Asarda Qoravoyning ayrim shaxslar qo'lida qilgan mehnatlari qadrsizlangani, uning mehnati uchun haq to'lanmaganligi tasvirlab berilgan: "...salkam to'rt oy xizmatingizni qilib, topganim bitta oporka bilan eski qalpoq bo'ldi. Buning ustiga yetim deb siylab o'tirmay, ikkovlashib toza savaladingiz. Haq bermadingiz. Bu qaysi shariatga kiradi-yu qaysi zakonda bor". [6, B.150]

Darhaqiqat, yetimlarning haqiga xiyonat qiluvchi kimsallar jamiyatda uchrab turadi. "Yetimning haqi" tushunchasi dinimizda ham keltirib o'tilgan bo'lib, bu haqqa xiyonat qilish gunoh ekanligi aytilgan: "(Voyaga yetganlaridan keyin qo'l ostingizdagi) yetimlarga mollarini beringiz va siz uchun nopok bo'lgan (yetimlarning mollarini o'zingizning haqqingiz bo'lgan) pok narsaga almashtirib olmangiz! Va ularning mollarini o'zingizning molingizga qo'shib yemangiz! Zero, bu katta gunoh bo'lgan ishdir". [7, Niso: 2]

“Yetimlarning mollarini zulm yo‘li bilan yeydigan kimsalar hech shak-shubhasiz qorinlariga olov yegan bo‘lurlar. Va albatta do‘zaxga kirajaklar!” [7, Niso: 10]

Endi quyida tahlil qilingan asarlarning qiyosiy jihatlariga alohida e‘tibor qaratamiz.

Yetimlik fenomeni: Jahon adabiyotida ijtimoiy kapitalizm va davlatning ijtimoiy-siyosiy jarayonlari va davlat amaldorlarining “shafqatli qonunlari” yetim bolalar hayotida o‘z ta‘sirini o‘tkazadi: Sho‘rluk Oliver! Xuddi shu kuni kengash uning bundan buyongi taqdir-u qismatiga o‘z ta‘sirini o‘tkazadigan qarorni qabul qilganini esiga ham keltirmay, hech vaqoni bilmay baxtiyorlik chodrasiga burkanib uxlab yotardi. [2, B.18]

O‘zbek adabiyotida, asosan, urush davri, qashshoqlik, tabaqalashish, insonlarning hayotda yashab qolishi uchun kurashish holatlari aks ettiriladi: “Hamma o‘zini baxtli deb hisoblaydimi? Ana, Turob, akasining jasadini Afg‘onistondan olib kelishdi... Ergash-chi? Otasi aravakash. Dars tugashi bilan somonbozorga yuguradi... Agar Dilduzalarga ham shu mavzu berilsa u nimani yozardi? Ikki oyog‘i qirqib tashlangan otasining inijliklari, onasiz qolishning naqadar baxtsizlik ekanini bayon qiladimi?” [4, B.29]

Asarda tasvirlangan qahramonlarning hayot tarzida ma‘lum o‘xshashliklar mavjudligi kuzatiladi: Har ikkala qahramon – Oliver va Qamariddin hali go‘daklik davridanoq yetim qolib, bolalar uyida voyaga yetgan obrazlar sifatida talqin qilinadi. Ammo Qoravoy obrazi ushbu qahramonlardan farqli ravishda qisman yetimlik sharoitida voyaga yetadi. Mazkur jihatdan “Alvido, bolalik” asarining qahramonlaridan biri Asror obrazi Qoravoy obraziga yaqin turadi.

Ulardan biri onasi, boshqasi esa otasi tomonidan yetarlicha e‘tibor olmagan muhitda voyaga yetadi.

Asardagi qahramonlarning xarakterlari bir-biridan farq qiladi. Oliver Twist, asosan, beg‘ubor, itoatkor bo‘lib, u jinoiy guruhlarining hayotida yashashga majbur bo‘lsa-da, sabri, e‘tiqodi va yaxshilikka bo‘lgan ishonchi sabab bu yo‘lni qabul qilmaydi. Aksincha, Qamariddin esa ichki ruhiy kechinmalari, alamzada, insonlarga va ota-onasiga bo‘lgan nafrati, yolg‘izlik muhiti, atrofdagilarga nisbatan norozilik, unga adolatsizlik qilgan insonlardan o‘ch olish tuyg‘usi ustunligi sabab o‘zi uchun jinoyat olamini yaratadi. Qoravoy obrazi misolida boshiga tushgan barcha musibatlarni topqirligi, sabri va o‘zining quvnoq xarakteri orqali yengib o‘ta oladigan, kattalar olamida yuz berayotgan nohaqliklarga o‘z munosabatini bildiradi oladigan bola timsolini ko‘rishimiz mumkin.

Voqealar jarayonida Oliver Twistda ham Qoravoyda ham dafn marosimi bilan bog‘liq holat kuzatiladi. Asarda ikki qahramon ruhiyatida ham “o‘lik”larga nisbatan qo‘rquv hissining mavjudligi ifodalangan: “Do‘konning o‘rtasidagi qora chorpoya ustida turgan chala tobut ko‘ziga shunchalar mudhish hamda vahimali ko‘rindiki, bu sovuq narsaga tikilarkan, Oliverning yuragi muz tortib, eti jimirlab ketdi: nazarida qandaydir dahshatli jasad hozir asta boshini ko‘taradi-yu, o‘zi bo‘lsa qo‘rquvdan aqldan ozib qoladiganday tuyuldi”. [2, B.39]

Qoravoyda esa bu holat o‘lik yuvish vaqtida yuz beradi: “Qaysi ko‘zim bilan qaray, biz yuvmoqchi bo‘lgan o‘lik tirilgan edi. Oyoqlari qimirlamagani holda betiga yopilgan yaltakni qimirlatib boshini ko‘tarmoqchi bo‘lar edi. Yuragim yorilguday bo‘ldi... orqamdan o‘lik quvlab kelayotgandek orqamga qayrilib boqar edim. Hovliga chiqib bo‘g‘iq va hayajonli ovoz bilan dodlay boshladim”. [6, B.36]

Asror va Oliver Twist obrazlari yetimlik, e‘tiborsizlik qurboni bo‘lishsa-da, ota-onalari bilan bog‘liq ichki mehr tuyg‘usi mavjud edi. Har ikkala qahramon ham ota-onasi haqidagi salbiy fikrlarga befarq bo‘lmaydi:

– *Qavm ko‘ppakchasi, – dedi Noe, – onangning ahvoli qalay?*

– *U o'lgan, – javob berdi Oliver. – U to'g'risida gapirmang. Shunday derkan Oliver qizarib ketdi... Oyimlar to'g'risida og'zingizni ocha ko'rmang. Yaxshisi butunlay gapirmang!* [2, B.53]

Asror ham otasiga aytilgan gaplar uchun g'azablanadi:

– *“Otang podlets odam” degan gapni eshitib Asrorning ko'zlaridan olov sachrab ketganday bo'ldi. U otasi kim ekanligini yaxshi bilardi. Otasi ming yomon bo'lganda ham birovning og'zidan haqorat eshitish Asrorga og'ir edi.* [4, B.52]

Oliver Twist va Asror qo'shilib qolgan jinoyatchilik to'dasiga kiruvchi yolg'iz ayollar:

Nensi va Difuza obrazlari asarda keltirib o'tilgan. Ular qisman bo'lsa-da ushbu qahramonlarga g'amxo'rlik qilib, ularni to'g'ri yo'lga boshlashga bilvosita omil bo'ladi. Oliver Twist ham Qoravoy ham o'z yashash joyini, qishloqlarini tark etib, keyinchalik turli xil sinovlarga, salbiy shaxslar ta'siriga duch keladi. Ularning ikkisi ham kissavurlar, o'g'rilar to'dasiga qo'shilib qoladi.

Yozuvchining individual uslubini aniqlash va tushunish uchun ikki yozuvchining ijodini bir-biriga qiyoslash usulidan foydalanish mumkin. Bunday qiyoslash jarayonida har ikkala yozuvchi ijodidagi mushtarak jihatlar ham, farqli xususiyatlar ham yaqqol ko'rinib qoladi. Ijodidagi mushtarak belgilar har ikkala yozuvchi ham yagona ijodiy metodga asoslanganligini anglatadi, yozuvchilarni bir-biridan ajratib turadigan hislatlar har ikkala yozuvchining ham original uslub sohibi ekanliklaridan guvohlik beradi. [8, B.550-551]

Tahlil qilingan bu asarlardan anglashimiz mumkinki, bolalikdan yetimlikda ulg'ayish, odatda, bolalarning ichki ruhiyatiga alam, qayg'u va iztirob kabi kechinmalarni yuzaga keltiradi.

Yetimlik hayotda bolalarning erta ulg'ayishi, hayotda mavjud mashaqqatlar, sinovlarga yolg'iz kurashishi, mehr va e'tiborga muhtojlik, atrof va jamiyatdan uzoqlashish kabi psixologik holatlarga sabab bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Hamroqulova X. Ruhiyat olamining estetik talqini // Sharq yulduzi, 2007, 5-son. – B. 138.
2. Charlz Dikens. Oliver Twistning boshidan kechirganlari. – Toshkent: “O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2013.
3. Jamilova B. O'zbek bolalar adabiyoti / o'quv qo'llanma /. – Toshkent: “Innovatsiya-Ziyo”, 2020. – B. 159.
4. Tohir Malik. Alvado... Bolalik. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2019.
5. Jamilova B. O'zbek bolalar adabiyoti / o'quv qo'llanma /. – Toshkent, 2019. – B. 99.
6. G'afur G'ulom. Shum bola. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2018.
7. Shayx Abdulaziz Mansur. Qur'oni Karim ma'nolarining tarjima va tafsiri / Niso surasi 2/10-oyatlar / “Reliable Print” MCHJ bosmaxonasi. – B. 77-78.
8. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent: “O'zbekiston”, 2002. – B. 550-551.